

**Individual bank seyflaridan foydalanish
ijara shartnomasi № _____**

_____ sh.

“___” _____ 20__ y.

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” ATB (bundan buyon matnlarda “Bank” deb nomlanadi) nomidan _____ 20__ yildagi _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi _____ bir tarafdin va jismoniy shaxs _____ (bundan buyon matnlarda “Mijoz” deb nomlanadi) ikkinchi tarafdin, birgalikda esa “Taraflar” deb yuritiladi, ushbu shartnomani (Bundan buyon matnda “Shartnoma” deb nomlanadi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

“Individual bank seyflari” (bundan buyon matnlarda “IBS” deb nomlanadi) har xil hajmdagi, raqamlangan metall shkaf ichiga joylashtirilgan metal quti (konteyner) bo‘lib, ijaraga olgan mijoz o‘ziga tegishli qimmatliklarni saqlashi uchun mo‘ljallangan maxsus moslama;

Master-kaliti – ijaraga berilgan IBSni ochish uchun mo‘ljallangan Bank kaliti. IBS qulfi ushbu kalit va Mijoz kaliti bilan birgalikda ochiladi;

Mijoz kaliti – ijaraga berilgan IBSning Mijoz uchun mo‘ljallangan, bir xil nusxadagi 2 (ikki) dona kalit;

Saqlanadigan buyum – Mijoz tomonidan IBSda saqlash ta‘qiqlanmagan qimmatbaho metallar, toshlar, zargarlik buyumlari, pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar, hujjatlar va boshqa buyumlar;

Depozitariy – IBS joylashgan maxsus jihozlangan va qo‘riqlanadigan alohida xona.

2. SHARTNOMANING PREDMETI

2.1 Bank filial binosining Depozitariysida joylashgan ma‘lum hajmdagi IBSni Mijozga qimmatliklarni saqlash uchun, ma‘lum muddatga, mazkur shartnomada belgilangan ijara to‘lovi evaziga ijaraga beradi.

2.2 Mijoz ijaraga olgan IBSdan saqlash mumkin bo‘lgan o‘zining qimmatlik yoki buyumlarini ma‘lum muddat davomida saqlash uchun foydalanadi.

2.3 Bank Mijoz yoki uning qonuniy vakili tomonidan o‘z buyumlarini IBSga joylashtirish yoki olish vaqtida ularni nazorat qilmaydi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1 Mijozning majburiyatlari

3.1.1 Shartnoma imzolanganidan so‘ng, eng kamida bir oylik ijara to‘lovini shartnoma tuzilgan bank ish kunida, keyingi oylar uchun to‘lovlarni joriy oyning 5 sanasigacha to‘lash.

3.1.2 Shartnomaning ilovasida keltirilgan buyum, qimmatlik, ashyolar va qonunchilikka zid bo‘lgan boshqa narsalarni IBSda saqlamaslik.

3.1.3 Bankning ish kunlarida IBSdan foydalanish uchun faqat soat 9-00 dan 16-30 gacha murojaat qilish.

3.1.4 IBSda saqlanayotgan buyumning mexanik, ximik, termik yoki boshqa ta‘siri natijasida boshqa IBSga va ulardagi buyumlarga hamda bank mulkiga yetkazilgan zararni to‘liq qoplash.

3.1.5 IBS kaliti va qulfini soz holatda saqlash hamda boshqa shaxslar bermaslik. IBS kalitini yo‘qotish, sindirish, o‘g‘irlatish yoki nosoz holatga kelganda zudlik bilan bankka xabar berish.

3.1.6 O‘zining qonuniy vakiliga IBSdan foydalanish uchun berilgan ishonchnoma bekor qilgan taqdirda, bu haqda zudlik bilan Bankka habar berish.

3.1.7 IBS kalitini but holatda saqlash, uchinchi shaxsga bermaslik va kalitlardan nusxa (dublikat) tayyorlamaslik.

3.1.8 IBS kalitini yo‘qotganda yoki qulfini nosoz holatga keltirganda Bank tarifida belgilangan jarima summasini to‘lash.

3.1.9 Ijara shartnomasi yoki qo‘shimcha ijara shartnomasi muddati tugagan kundan keyingi ish kunidan kechikmagan holda IBSni bo‘shatish va kalitlarni topshirish.

3.2 Bankning majburiyatlari

3.2.1 Ijara shartnomasi tuzilib, ijara to‘lovi to‘langandan so‘ng IBSni va kalitni mijozga qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga asosan topshirish.

3.2.2 IBSlar va ularga joylashtirilgan buyumlarni but saqlanishini bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rish.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1 Mijozning huquqlari

4.1.1 IBSdan foydalanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik Kodeksi”ga asosan ishonchnoma berishi yoki vasiyatnoma rasmiylashtirishi mumkin. Ushbu xujjatlar notarius tomonidan tasdiqlanishi shart.

4.1.2 IBSdan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq foydalanish.

4.1.3 Shartnomani muddatini uzaytirish bo‘yicha qo‘shimcha shartnoma tuzish.

4.1.4 Ish kunlarida Bankka soat 9-00 dan 16-30 gacha o‘zi yoki qonuniy vakili Depozitariyga kirishi, Bank xodimlarining nazoratisiz buyumlarni IBSga joylashtirish yoki qaytarib olish.

4.1.5 Bankka yozma ravishda murojaat qilgan holda shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.

4.2 Bankning huquqlari

4.2.1 Mijozdan Bankning depozitariysiga kirish uchun shaxsini tasdiqlovchi xujjatning aslini ko‘rsatishni talab qilish.

4.2.2 Xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida shubxali holatlar yuzaga kelganda Mijozdan IBSga qo‘yilgan buyumlarni ko‘rsatishini talab qilish.

4.2.3 Shoshilinch holatlarda Bankning ichki tartib qoidalarida belgilangan tartibda harakat kilish.

4.2.4 Quyidagi holatlarda Bank tomonidan IBS majburiy tarzda Mijoz ishtirokisiz ochishi mumkin:

4.2.4.1. Fors - major xolatlar yoki favqulotda holatlar yuzaga kelganda;

4.2.4.2. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli davlat organlari qaroriga asosan;

4.2.4.3. IBSda saqlash ta‘qiqlangan buyum yoki ashyolar saqlanayotganligi aniqlanganda yoki shubxa qilinganda;

4.2.4.4. Ijara muddati tugagandan so‘ng Mijoz tomonidan shartnomani uzaytirish yoki IBS kalitlarini qaytarish uchun kelmagan taqdirda Bank Mijozni telefon orqali ogohlantiradi yoki yozma ravishda ogohlantirish xati yuboradi. Shundan so‘ng bir oy davomida Mijoz bankka kelmagan taqdirda.

4.2.5 IBSni Mijoz ishtirokisiz majburiy tarzda ochilganda saqlanayotgan buyumlarni dalolatnomaga asosan inkassatsiya qopiga joylashtirib, qopning og‘zi berkitilib plombalangan holda Bank kassasiga saqlash uchun kirim qiladi.

4.2.6 Mijoz tomonidan muddatidan oldin shartnoma bekor qilingan taqdirda, IBS ijarasidan foydalanilmagan oylar uchun to‘langan ijara to‘lovlari qaytarilmaydi.

5. SHARTNOMA BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

5.1	IBSning tartib raqami	№ _____
5.2	IBSning hajmi	_____ x _____ x _____ hajmdagi
5.3	IBSning ijara olish muddati	_____ (_____) oy
5.4	IBS ijara muddatining oxirgi sanasi	“_____” _____ 20__ yil
5.5	IBS ijara to‘lovi summasi	_____ (_____) so‘m
5.6	IBSning ijaraga olingan muddatdan so‘ng, IBSni band qilingan kunlar uchun belgilangan jarima miqdori	_____ (_____) so‘m
5.7	IBSning kalitini yuqotganligi yoki qulfni nosoz holatga keltirganligi uchun belgilangan jarima miqdori	BXMning 50 (ellik) foizi miqdorida

6. SHARTNOMANING ALOHIDA SHARTLARI

6.1 Individual bank seyflarida quyida keltirilgan buyum va ashyolarni saqlash qat'iyan ta'qiqlanadi:

- 6.1.1. Uzoq muddat saqlanmaydigan, qisqa muddatda aynish, buzilish, chirish xususiyatga ega oziq-ovqat yoki biologik (kimyoviy) jismlar va suyuqlik (modda)lar;
- 6.1.2. Tirik organizmlar;
- 6.1.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq muomalada bo'lishi cheklangan, taqiqlangan, muomaladan chiqarilgan yoki saqlash uchun qonunga muvofiq tegishli ruxsat olish talab etiladigan, biroq shunday ruxsatnoma olinmagan narsa, buyum va ashyolar;
- 6.1.4. Saqlash davomida IBS yonidagi boshqa seyflarga, ularda saqlanayotgan narsa, buyum, qimmatliklarga, boshqa jihozlarga, jumladan, bank mulkiga zarar yetkazishi yoki bank xodimlarining sog'ligi yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan buyum va ashyolar;
- 6.1.5. Portlovchi, tez alanga oluvchi, toksik, radioaktiv, narkotik moddalar va jismlar hamda atrof-muhit va insonlarga zarar yetkazuvchi boshqa buyum va ashyolar;
- 6.1.6. O'qotar va portlatuvchi qurollar, o'q-dorilar va barcha turdagi jangovor qurollar;
- 6.1.7. Amaldagi qonunchiliklarga va davlat siyosatiga zid bo'lgan diniy ekstremizm, fundamentalizm, aqidaparastlik mazmunidagi adabiyotlar, varaqalar, amaldagi davlat konstitutsiyaviy tuzumiga o'zgartirish kiritishga, zo'rlik yo'li bilan Hokimiyatni noqonuniy tarzda egallab olishga, Qonuniy saylangan yoki tayinlangan hokimiyat rahbarlarini chetlatishga, O'zbekiston Respublikasining xududiy yaxlitligi va birligini noqonuniy yo'llar bilan buzish xarakteridagi har qanday materiallar.

7. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

7.1 Taraflar ushbu Shartnomaga asosan o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun amaldagi qonunchilikka asosan javobgar bo'ladilar.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1 Shartnoma imzolangan kundan boshlab IBSda saqlanayotgan buyumni Mijoz tomonidan yoki Bank tomonidan majburiy tarzda olingunga qadar amal qiladi.

8.2 Mijoz Bankni yozma tarzda ogohlantirgandan so'ng 2 (ikki) bank ish kunidan keyin shartnomani muddatidan oldin bekor qilishi mumkin.

8.3 Ushbu shartnoma shartlariga Mijozning huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni Bank tomonidan bir tomonlama kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. MAXFIYLIK

9.1 Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida Taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2 Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa Tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

9.3 Mazkur talab nomuayyan muddatga amal qiladi.

9.4 Ushbu talablarni buzgan Taraf buning oqibatida ikkinchi Tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

10. FORS-MAJOR HOLATLARI

10.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu Taraflarning irodasi, hoxishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal va boshqalar), uchinchi shaxslar tomonidandan qilingan hujumlar sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

10.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda Taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

10.3 Yuzaga kelgan Fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida Taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank ish kunida bu haqda ikkinchi Tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

10.4 Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar Taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlar bundan mustasno).

10.5 Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda Taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

11.2 O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan Taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi Taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

11.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

11.4 Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda Sud orqali hal etiladi.

11.5 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega. Shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Mijozda saqlanadi.

12. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI, REKVIZITLARI VA IMZOLARI

“MIJOZ”

“BANK”

F.I.O _____ Tug'ilgan sanasi: _____ Pasport № _____ Berilgan joyi: _____ Berilgan sana: _____ Yashash manzili: _____ imzo _____	_____ BXO Manzili: _____ Aloka markazi: 0 800 1-200-200 yoki 1256 e-mail: contact@hamkorbank.uz Telefon: _____ Boshqaruvchi: _____ Imzo _____ M.U
---	--